



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Farg‘ona davlat universiteti uchun
MAXSUS SON**

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Abduvoxidov A.A. Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
Olimova N.X. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
Эргашев А.Х. Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
Yulchiyev A.O. Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A. Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
Karimov Sh.X. Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
O‘rinboyev D.B. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R. Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
Israilova M.V. Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
Turg‘unov M.M. Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
Mannopova M.S. Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
Nematova Sh.E. Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
Rasulov U.A. Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
Raximov D.Sh. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
Teshabayeva O.N. Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
Jaksimova Z.R. Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
Yunusov A.R. "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
Юнусов Ш. Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
Xalmatjanova G.D. Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
Xomidov Q.Q. O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
Jo‘rayev H.Q. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari	114
Xakimov D.R. Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
To‘xtasinova D. Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
Xolmatov B.A. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
Jumakulov Z.I., Baxromov B. O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
To‘ychiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
Abdisamatov Sh.A. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
Asraqulov A.S. Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
Muxtorov A.A., Mirzayev A.T. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
Usibjonova G.U., Mannopova M.S. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N. O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	166
Ximmatova G.K., To‘xtasinova D. Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	170
Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T. Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	174
Xasanova R., Teshabayeva O.N. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	180
Zufarova G.A. Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	184
Ergashev J.S. "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish	187
O‘rinov A.A. Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	192
Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A. Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	197
Саиджоновна З.Б. Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	201
Qodirov Z.E. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	205
Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	210
Хайдаров Х. Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	214
Махамადийев М.М. Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	217
Madaminov G‘.M. Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	222
Nazirboyev D.D. Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	227
Хасанова С.И. Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	232
Teshaboyev B.A. Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	237
Mustafoyeva Z.A. Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	242
Xolmirzayev U.A., Muradova N.R. Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	245
Sadullayev R.P. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	249
Муратов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н. Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	258
Tursunov O.B. Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘rni ta‘minlash.....	269
Sayitbayev Sh.D. Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘rni.....	274
Ibodulloyeva Z.S. Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	278
Salimova Z.S. Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	282
G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K. Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	286
Абдуллоев А.Ж. Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	289
Rahimova M.I. O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	294
Rahmatullayeva D.O. Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	299
Valikulov Sh.Z. “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	305
Турабекова Г.И. Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	312
Tajirboyev S.O. Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	316
Madaminov A.M. Sanoat korxonalarida faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	319

YANGI O‘ZBEKISTONDA MOLIYAVIY BARQARORLIK VA IQTISODIY O‘SISH

ФИНАНСОВАЯ СТАБИЛЬНОСТЬ И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ В НОВОМ
УЗБЕКИСТАНЕ

FINANCIAL STABILITY AND ECONOMIC GROWTH IN NEW UZBEKISTAN

Sayitbayev Shermirza Datkamirzaevich

Namangan davlat texnika universiteti Buxgalteriya hisobi kafedrası professori

Annotatsiya

Maqolada Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash va iqtisodiy o‘shishni jadallashtirishning nazariy-amaliy asoslari tahlil qilinib, makroiqtisodiy barqarorlik, fiskal intizom hamda pul-kredit siyosati roli yoritiladi. Tadqiqot barqaror taraqqiyot uchun institutsional islohotlarni chuqurlashtirish va moliyaviy risklarni samarali boshqarish zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: moliyaviy barqarorlik, iqtisodiy o‘shish, makroiqtisodiy siyosat, fiskal intizom, pul-kredit siyosati, investitsion muhit, davlat qarzi boshqaruvi, bank-moliya tizimi.

В статье анализируются теоретико-практические основы обеспечения финансовой стабильности и ускорения экономического роста в Новом Узбекистане, освещается роль макроэкономической стабильности, фискальной дисциплины и денежно-кредитной политики. Исследование обосновывает необходимость углубления институциональных реформ и эффективного управления финансовыми рисками для устойчивого развития.

Ключевые слова: финансовая стабильность, экономический рост, макроэкономическая политика, фискальная дисциплина, денежно-кредитная политика, инвестиционный климат, управление государственным долгом, банковско-финансовая система.

The article analyzes the theoretical and practical foundations of ensuring financial stability and accelerating economic growth in New Uzbekistan, highlighting the role of macroeconomic stability, fiscal discipline, and monetary policy. The study substantiates the need for deepening institutional reforms and effective financial risk management for sustainable development.

Keywords: financial stability, economic growth, macroeconomic policy, fiscal discipline, monetary policy, investment climate, public debt management, banking and financial system.

Yangi O‘zbekiston sharoitida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, bozor tamoyillarini chuqurlashtirish va global iqtisodiy tizimga integratsiyalashuv jarayonlari moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash masalasini ustuvor vazifalardan biriga aylantirdi. So‘nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli tarkibiy islohotlar, fiskal va monetar siyosatni liberallashtirish, bank-moliya tizimini transformatsiya qilish hamda investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar iqtisodiy o‘shishning yangi modelini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy beqarorlik, global inflyatsion bosim va moliyaviy bozorlar konyunkturasidagi o‘zgarishlar milliy iqtisodiyot barqarorligiga ma‘lum darajada ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Moliyaviy barqarorlik iqtisodiy o‘shishning muhim institutsional sharti sifatida davlat byudjeti muvozanati, inflyatsiya darajasining maqbulligi, bank tizimi likvidligi va davlat qarzi xavfsiz darajada boshqarilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Barqaror makroiqtisodiy muhit investitsiyalar oqimini kengaytiradi, tadbirkorlik faolligini rag‘batlantiradi va uzoq muddatli iqtisodiy o‘shish uchun mustahkam zamin yaratadi. Shu nuqtai nazardan, Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash va iqtisodiy o‘shishni uyg‘unlashtirish masalalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi — mamlakatda amalga oshirilayotgan moliyaviy

siyosatning iqtisodiy o‘shiga ta’sirini tizimli o‘rganish hamda barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat.

Moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘sh o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik iqtisodiy nazariyada keng o‘rganilgan masalalardan biridir. Klassik va neoklassik iqtisodiy maktab vakillari iqtisodiy o‘sh omillarini kapital jamg‘arilishi, mehnat resurslari va texnologik taraqqiyot bilan izohlagan bo‘lsalar, zamonaviy tadqiqotlar moliyaviy tizim rivojlanishi va makroiqtisodiy barqarorlikni ham asosiy determinant sifatida e’tirof etadi. Solou modelida uzoq muddatli iqtisodiy o‘sh asosan texnologik taraqqiyot bilan bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi, biroq moliyaviy muhitning barqarorligi kapitalning samarali taqsimlanishida muhim o‘rin tutadi [1].

Moliyaviy rivojlanish va iqtisodiy o‘sh o‘rtasidagi empirik bog‘liqlikni tadqiq etgan R. Levin moliyaviy vositachilik institutlari kapitalni samarali taqsimlash, risklarni diversifikatsiya qilish va jamg‘armalarni investitsiyalarga aylantirish orqali o‘shni rag‘batlantirishini asoslab bergan [2]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, bank-moliya tizimining barqarorligi iqtisodiy o‘sh sur‘atlarining izchilligini ta’minlaydi.

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda pul-kredit va fiskal siyosatning muvofiqlashtirilgan holda yuritilishi muhim ahamiyatga ega. Blanchard inflyatsiya nazorati, byudjet taqchilligini maqbullashtirish va davlat qarzi barqarorligini saqlash iqtisodiy muvozanatning asosiy sharti ekanligini ta’kidlaydi [3]. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi tadqiqotlarida ham fiskal intizom va monetar barqarorlik investitsion muhitni yaxshilash hamda moliyaviy inqirozlarning oldini olishda hal qiluvchi omil sifatida baholanadi [4].

O‘zbekiston iqtisodiyoti misolida moliyaviy barqarorlik masalalari mahalliy olimlar tomonidan ham o‘rganilgan. Jumladan, milliy iqtisodiyotda fiskal siyosatni takomillashtirish, davlat qarzini samarali boshqarish va bank tizimini isloh qilish iqtisodiy o‘shning institutsional asoslari sifatida tahlil qilingan [5]. So‘nggi yillarda “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi doirasida makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, inflyatsiyani bosqichma-bosqich pasaytirish va moliyaviy sektorni liberallashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [6].

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy barqarorlik iqtisodiy o‘shning zaruriy sharti bo‘lib, u fiskal intizom, monetar siyosat samaradorligi, bank tizimi mustahkamligi va institutsional islohotlar bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois Yangi O‘zbekiston sharoitida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiy o‘shning sifat jihatdan yangi bosqichiga o‘tish masalalarini kompleks yondashuv asosida tadqiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot doirasida tizimli va iqtisodiy-statistik tahlil hamda mantiqiy umumlashtirish metodlaridan foydalanib, mamlakatning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Rasmiy idoralar va xalqaro moliya institutlari ma’lumotlari asosida YAIM o‘shisi, inflyatsiya hamda bank sektori indikatorlari tahlil qilindi. Moliyaviy barqarorlikning iqtisodiy o‘shiga ta’siri sabab-oqibat munosabatlari va sifat tahlili orqali baholandi. Natijada moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va o‘shni rag‘batlantirishning ilmiy asoslangan mexanizmlari ishlab chiqildi.

Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘sh o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni baholash uchun makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi, fiskal siyosat natijalari hamda bank-moliya tizimi barqarorligi kompleks tarzda tahlil qilindi. Tahlil jarayonida 2017-2024 yillar oralig‘idagi asosiy makroindikatorlar asos qilib olindi. Ushbu davr mamlakat iqtisodiyotida chuqur tarkibiy islohotlar, valyuta bozorini liberallashtirish, soliq tizimini optimallashtirish va pul-kredit siyosatini modernizatsiya qilish jarayonlari bilan xarakterlanadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sh sur‘atlari nisbatan barqaror saqlanib qoldi. Global pandemiya va tashqi iqtisodiy beqarorlik sharoitida ham iqtisodiy o‘sh ijobiy hududda saqlanishi moliyaviy boshqaruvning moslashuvchanligini ko‘rsatadi. Inflyatsiya darajasi 2017-2019 yillarda yuqori bosim ostida bo‘lgan bo‘lsa-da, Markaziy bankning qat’iy pul-kredit siyosati natijasida bosqichma-bosqich pasayish tendensiyasi kuzatildi.

Davlat byudjeti taqchilligi dastlab investitsion va ijtimoiy dasturlarni keng moliyalashtirish hisobiga oshgan bo‘lsa, keyingi yillarda fiskal intizomni mustahkamlash orqali maqbullashtirildi. Davlat qarzi hajmi oshganiga qaramay, uning YAIMga nisbati xalqaro mezonlar doirasida saqlanib qolmoqda, bu esa qarz barqarorligini ta’minlash siyosati samaradorligini anglatadi.

Quyidagi jadvalda asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi keltirilgan.

1-jadval

Yangi O‘zbekistonda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi

Ko‘rsatkichlar	2017	2019	2021	2022	2023	2024*
YAIM o‘sishi (%)	4,5	5,7	7,4	5,7	6,0	6,2
Inflyatsiya (%)	14,4	15,2	10,0	12,3	8,8	8,0
Byudjet taqchilligi (YAIMga nisbatan, %)	-0,8	-3,5	-5,5	-4,2	-3,2	-3,0
Davlat qarzi (YAIMga nisbatan, %)	20,4	29,0	38,0	36,4	34,5	33,0

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘shish va moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari o‘rtasida muvozanatni saqlashga intilish mavjud. Inflyatsiya darajasining pasayishi pul-kredit siyosatining qat’iylashuvi bilan bog‘liq bo‘lib, narxlar barqarorligi investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Byudjet taqchilligini bosqichma-bosqich kamaytirish fiskal barqarorlikni mustahkamlab, davlat qarzining xavfsiz darajada saqlanishiga imkon bermoqda. Bu holat uzoq muddatli iqtisodiy o‘shish uchun makroiqtisodiy ishonch muhitini shakllantiradi.

Moliyaviy barqarorlikning muhim tarkibiy qismi bank tizimi mustahkamligi hisoblanadi. So‘nggi yillarda bank sektorini transformatsiya qilish, xususiy kapital ulushini oshirish, kredit portfelini diversifikatsiya qilish va raqamli moliyaviy xizmatlarni kengaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi.

Bank aktivlarining YAIMga nisbati ortib borishi moliyaviy chuqurlashuv darajasining oshayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, problemali kreditlar ulushining nazorat ostida saqlanishi moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Quyidagi jadval bank sektorining asosiy ko‘rsatkichlarini aks ettiradi.

2-jadval

Bank-moliya tizimi barqarorligi ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	2017	2019	2021	2022	2023	2024*
Bank aktivlari (YAIMga nisbatan, %)	55	60	66	70	72	74
Kredit portfeli o‘sishi (%)	120	134	118	121	122	115
Problemali kreditlar ulushi (%)	1,2	1,5	4,9	4,0	3,5	3,2
Kapital yetarliligi darajasi (%)	18,8	17,5	16,7	17,2	18,0	18,5

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, bank tizimida kapital yetarliligi ko‘rsatkichlari xalqaro minimal talab darajasidan yuqori saqlanmoqda. Problemali kreditlar ulushi pandemiya davrida oshgan bo‘lsa-da, keyingi yillarda kamayish tendensiyasiga ega bo‘ldi.

Moliyaviy vositachilik darajasining ortishi iqtisodiy o‘shish sur‘atlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Kredit resurslarining real sektor yo‘nalishlariga samarali yo‘naltirilishi sanoat, xizmatlar va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini kengaytirishga imkon bermoqda.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan siyosat iqtisodiy o‘shishning izchil davom etishiga xizmat qilmoqda. Inflyatsiyaning pasayishi, byudjet taqchilligining maqbullashtirilishi va davlat qarzi darajasining nazorat ostida saqlanishi makroiqtisodiy ishonchni mustahkamladi.

Bank-moliya tizimidagi islohotlar moliyaviy vositachilik samaradorligini oshirdi hamda iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirdi. Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy xatarlar, global bozor konyunkturasi va kapital oqimlaridagi o‘zgarishlar moliyaviy barqarorlikni doimiy monitoring qilish zaruratini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish o‘rtasida o‘zaro mustahkam bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Barqaror fiskal va monetar siyosat, bank tizimi mustahkamligi hamda institutsional islohotlarning izchilligi uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tadqiqot natijalari Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik iqtisodiy o‘shishning asosiy omili ekanini tasdiqladi. Fiskal konsolidatsiya, qat’iy pul-kredit siyosati va bank-moliya tizimidagi

transformatsiyalar makroiqtisodiy muhitni barqarorlashtirishga xizmat qildi. Ko‘rsatkichlar dinamikasi YAİM o‘shishining barqarorligini, inflyatsiya va byudjet taqchilligi pasayganini ko‘rsatadi. Davlat qarzining xavfsiz mezonlarda saqlanayotgani moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kelgusida institutsional islohotlarni chuqurlashtirish orqali moliyaviy risklarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish barqaror taraqqiyotni ta‘minlashning ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qoladi.

Bank sektorida kapital yetariligi darajasining yuqoriligi, problemali kreditlar ulushining kamayishi hamda moliyaviy vositachilik darajasining oshishi real sektor rivojlanishini qo‘llab-quvvatlayotganini ko‘rsatadi. Bu omillar uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘shish uchun zarur moliyaviy zamin yaratmoqda.

Shu bilan birga, global iqtisodiy beqarorlik, tashqi savdo konyunkturasi va kapital oqimlaridagi o‘zgarishlar milliy iqtisodiyot uchun muayyan xatarlarni yuzaga keltirishi mumkin. Demak, moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash jarayoni uzluksiz takomillashtirish va ehtiyotkor makroiqtisodiy siyosat yuritishni talab etadi.

1. Fiskal barqarorlikni mustahkamlash: O‘rta muddatli byudjet rejalashtirish tizimini yanada takomillashtirish, byudjet xarajatlarining samaradorligini baholash mexanizmlarini kuchaytirish hamda fiskal qoidalarni amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq.

2. Inflyatsiyani barqaror darajada ushlab turish: Pul-kredit siyosatini inflyatsion targetlash tamoyillari asosida izchil davom ettirish, monetar instrumentlar samaradorligini oshirish va narxlar barqarorligini uzoq muddatli iqtisodiy o‘shish bilan uyg‘unlashtirish zarur.

3. Davlat qarzini boshqarish tizimini takomillashtirish: Qarzni jalb qilishda uzoq muddatli va past foizli moliyalashtirish manbalariga ustuvorlik berish, qarz portfelini diversifikatsiya qilish hamda qarz xavflarini baholashning ilg‘or mexanizmlarini qo‘llash tavsiya etiladi.

4. Bank-moliya tizimini chuqurlashtirish: Xususiy banklar ulushini oshirish, kapitallashuv darajasini mustahkamlash, raqamli moliyaviy xizmatlarni kengaytirish va moliyaviy inklyuziyani rivojlantirish iqtisodiy o‘shishni qo‘llab-quvvatlaydi.

5. Investitsion muhitni yaxshilash: Institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, sud-huquq tizimi samaradorligini oshirish va biznes yuritish sharoitlarini soddalashtirish orqali xususiy investitsiyalar hajmini kengaytirish lozim.

6. Moliyaviy risklarni monitoring qilish tizimini kuchaytirish: Makroprudensial nazorat mexanizmlarini rivojlantirish, moliyaviy sektor bo‘yicha erta ogohlantirish indikatorlarini joriy etish hamda global xatarlarni prognozlash tizimini takomillashtirish zarur.

Umuman olganda, Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash o‘zaro uyg‘unlashtirilgan fiskal, monetar va institutsional siyosatni talab etadi. Kompleks va tizimli yondashuv mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Solow, Robert M. “A Contribution to the Theory of Economic Growth.” *The Quarterly Journal of Economics* 70, no. 1 (1956): 65–94.
2. Levine, Ross. “Financial Development and Economic Growth: Views and Agenda.” *Journal of Economic Literature* 35, no. 2 (1997): 688–726.
3. Blanchard, Olivier. *Macroeconomics*. 7th ed. Boston: Pearson Education, 2017.
4. International Monetary Fund (IMF). *Fiscal Monitor: Policies for the Recovery*. Washington, DC: IMF, 2021.